

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XIZMATLAR SOHASINI RIVOJLANTIRISH BORASIDAGI DAVLAT SIYOSATINING JAHON TAJIRIBASIGA INTEGRATSIYALASHUVI

Qushmatov Azizbek Abbosxon o'g'li

O'qituvchi, "Effortless education service" MChJ

Tel: +99895 460 20 00

E-mail: Azizbekkushmatov7@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini, xususan turizm va yo'lbo'yi xizmatlari yo'nalishlarini rivojlantirishda davlat siyosatining jahon tajribasiga integratsiyalashuv jarayonlari tadqiq etilgan. Tadqiqotning dolzarbligi shundan iboratki, O'zbekistonda xizmatlar sohasi boshqa tarmoqlarga nisbatan yangi bo'lib, raqobat kuchayib borayotgan sharoitda yangi iste'molchilarni jalb qilish xarajatlari tobora oshib bormoqda va bu ko'rsatkich mavjud mijozlarni ushlab qolish xarajatlaridan bir necha barobar yuqori bo'lib, davlat tomonidan maqsadli qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini xalqaro amaliyot bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi. Maqolaning maqsadi — 2022-yilda e'lon qilingan davlat chora-tadbirlari misolida O'zbekistonda xizmatlar, xususan turizm va yo'lbo'yi xizmatlari sohasini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining mazmun-mohiyatini hamda uning xalqaro tajriba bilan uyg'unlik darajasini ochib berishdan iborat. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, mantiqiy umumlashtirish va monografik kuzatish usullaridan foydalanilgan; ma'lumotlar bazasi sifatida davlat dasturlari, hukumat qarorlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari hamda ilmiy adabiyotlar tanlangan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, turizm salohiyati yuqori bo'lgan 45 ta tog'li va tog'oldi tumanda yo'l, aloqa va mehmonxona infratuzilmasini rivojlantirish orqali turizm xizmatlari hajmini 3-4 barobar oshirish, shuningdek soliq imtiyozlari va imtiyozli kreditlar hisobiga yangi ish o'rinlari yaratish mumkinligi aniqlandi. Shuningdek, magistral yo'l bo'yi va chegara oldi hududlarida logistika xizmatlarini, yirik shaharlarda esa yuqori daromadli tibbiyot, ta'lim va san'at xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha aniq mexanizmlar ishlab chiqilgani aniqlandi. Tadqiqot davomida O'zbekiston tajribasining Xitoy, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi mamlakatlarning ichki turizmni rivojlantirish siyosati bilan umumiy va farqli jihatlari aniqlangan, bu esa milliy siyosatni xalqaro kontekstda baholash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy xizmatlar sohasi siyosatini takomillashtirishda, davlat dasturlarining samaradorligini oshirishda hamda xalqaro tajribani milliy sharoitga moslashtirishda amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi; davlat siyosati; turizm; yo'lbo'yi xizmatlari; jahon tajribasi; infratuzilma investitsiyalari; soliq imtiyozlari; ish o'rinlari; raqobatdosh ustunlik; mintaqaviy rivojlanish.

KIRISH

Bozor munosabatlarining rivojlanishi va iqtisodiyotni tarkibiy modernizatsiyalash sharoitida xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy o'sishi, arzon ish o'rinlari yaratish, aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni kamaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro mehnat tashkiloti hisob-kitobiga ko'ra, xizmatlar sohasining 1 foizga o'sishi kambag'allikni o'rtacha 1,5 foizga qisqartiradi, bu esa

mazkur sohani rivojlantirish nafaqat iqtisodiy, balki ijtimoiy ahamiyatga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy rivojlanishning dastlabki bosqichlarida sanoat va qishloq xo'jaligi sohasining rivoji mahsulotlarni yetkazib berish (transport sohasi), kommunal infratuzilmalar (suv, gaz, elektr, kanalizatsiya), ishlab chiqarishni moliyalashtirish (banklar), mahsulotlar bozorini kengaytirish (axborot, kommunikatsiya xizmatlari) va boshqa muhim xizmatlarga bevosita bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari, mamlakatda mehnat unumdorligini va inson kapitalini oshirish (ta'lim, sog'liqni saqlash), xalqaro savdoni kengaytirish imkoniyatlari ham xizmatlar sohasining barqaror rivojini talab qiladi. Shu bois, xizmatlar sohasini rivojlantirish masalasi alohida tarmoq siyosati emas, balki mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining kompleks tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqilishi lozim.

O'zbekistondagi xizmatlar sohasi boshqa sohalarga nisbatan yangi bo'lganligi va so'nggi yillardagina rivojlanish sur'atlariga erishayotganligi sababli hozirda ko'plab yangi iste'molchilarni jalb qilishda ba'zi bir qiyinchiliklarga duch kelmoqda. Qolaversa, raqobat kuchayib borayotganligi yuzasidan yangi mijozlarni jalb qilish xarajatlari tobora oshib bormoqda, bu ko'rsatkich mavjud mijozlarni qondirish xarajatlaridan bir necha barobar yuqoridir. Iste'molchini raqobatchidan uzoqlashtirish uchun ularning talablarini raqobatchidan ko'ra yaxshiroq qondirish lozim bo'lib, bu esa xizmatlar sohasida faoliyat yurituvchi har bir korxonani raqobatdosh ustunliklarni yaratish usullarini izlashga undaydi.

Beqiyos madaniyati, go'zal tabiati hamda betakror tarixiy obidalariga ega O'zbekiston uchun ayniqsa sayyohlik sohasini rivojlantirish alohida ahamiyat kasb etadi. Shu bilan birga, mamlakatning turli hududlarida yo'l, mobil aloqa, internet va mehmonxona infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi mavjud turizm salohiyatidan to'liq foydalanishga to'sqinlik qilmoqda. Ushbu holat davlat tomonidan xizmatlar sohasini, xususan turizm va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha maqsadli chora-tadbirlar ishlab chiqishni hamda ularni jahon amaliyotidagi ilg'or tajriba bilan uyg'unlashtirishni taqozo etadi.

Ayni paytda, mazkur mavzuning dolzarbligi shundan ham kelib chiqadiki, O'zbekiston 2022-yilda Jahon turizm tashkilotining Bosh assambleyasiga birinchi marta mezbonlik qilgan mamlakat sifatida, xizmatlar sohasidagi davlat siyosatini xalqaro andozalarga muvofiqlashtirish borasida alohida mas'uliyat va imkoniyatga ega bo'ldi.

Mazkur tadqiqotning maqsadi — 2022-yilda e'lon qilingan davlat chora-tadbirlari misolida O'zbekistonda xizmatlar sohasini, xususan turizm va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining mazmun-mohiyatini hamda uning xalqaro tajriba bilan uyg'unlik darajasini ochib berishdan iborat.

Tadqiqot maqsadidan kelib chiqqan holda quyidagi vazifalar belgilab olindi: birinchidan, xizmatlar sohasida raqobatdosh ustunliklarni shakllantirishning nazariy asoslarini hamda xorijiy mamlakatlar tajribasini tahlil qilish; ikkinchidan, O'zbekistonda 2022-yilda e'lon qilingan davlat chora-tadbirlarining mazmunini va yo'nalishlarini tizimlashtirish; uchinchidan, ushbu chora-tadbirlarning xalqaro tajriba bilan uyg'unlik darajasini baholash; to'rtinchidan, davlat siyosatini yanada

takomillashtirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini, xususan turizm va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha davlat siyosati, predmeti sifatida esa ushbu siyosatni shakllantirish va uni xalqaro tajriba bilan uyg'unlashtirish jarayonida yuzaga keladigan iqtisodiy munosabatlar olingan. Tadqiqotning ilmiy-amaliy ahamiyati shundaki, olingan xulosalar davlat organlari tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturlarini ishlab chiqishda hamda mintaqaviy darajada amaliy chora-tadbirlarni loyihalashtirishda foydalanilishi mumkin.

Maqola tuzilishi quyidagicha tashkil etilgan: dastlab mavzu bo'yicha mavjud ilmiy adabiyotlar va xorijiy mamlakatlar tajribasi tanqidiy tahlil qilinadi, so'ngra qo'llanilgan tadqiqot metodologiyasi bayon etiladi, keyingi qismda 2022-yilda e'lon qilingan davlat chora-tadbirlari bo'yicha faktik ma'lumotlar taqdim etiladi, so'ngra ular xalqaro tajriba va ilmiy adabiyotlar bilan solishtirilgan holda muhokama qilinadi va yakunda asosiy xulosa hamda amaliy takliflar keltiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xizmatlar sohasi va uning iqtisodiy mazmuni klassik iqtisodiy maktab vakillari asarlaridan boshlab tadqiq etib kelinmoqda. V.Fuks o'zining "The Service Economy" asarida rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotining xizmatlar iqtisodiyoti bosqichiga o'tishini asoslab bergan (Fuchs, 1968), bu yondashuv keyinchalik J.Singelmann tomonidan yetti sanoat mamlakati misolida empirik tasdig'ini topgan (Singelmann, 1978). Ushbu ishlar xizmatlar sohasining iqtisodiyotning yetakchi tarmog'iga aylanishini nazariy jihatdan asoslagan bo'lsa-da, ularda davlat siyosatining xalqaro tajriba bilan uyg'unlashuv masalasi alohida ko'rib chiqilmagan.

Raqobat nazariyasi nuqtayi nazaridan I.M.Kirtsner raqobat va tadbirkorlikni bir-biriga bog'liq jarayon sifatida tahlil qilib, bozor muvozanatiga erishishda tadbirkorlik tashabbusining rolini asoslab bergan (Kirtsner, 2001). Sifat menejmenti nazariyasi bo'yicha J.M.Juran va A.B.Godfrey mijozlarni ushlab qolish xarajatlarining yangi mijozlarni jalb qilish xarajatlaridan ancha past ekanligini asoslab bergan (Juran & Godfrey, 1999), bu qoida xizmatlar sohasida raqobat strategiyasini shakllantirishning nazariy negizini tashkil etadi va O'zbekiston sharoitida yangi iste'molchilarni jalb qilish xarajatlarining yuqoriligini izohlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm iqtisodiyoti bo'yicha P.Frommer va K.Silver Las-Vegas shahri misolida turizm va xizmat ko'rsatish sohasining hududiy rivojlanish modelini tasvirlab, mahalliy hokimiyat organlarining soliq imtiyozlari va infratuzilma investitsiyalari orqali turizm salohiyatini ro'yobga chiqarishdagi faol rolini ko'rsatib bergan (Frommer & Silver, 2015). Bu model mazkur maqolada tahlil qilinayotgan O'zbekiston tajribasi — soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va infratuzilma investitsiyalari orqali turizm hududlarini rivojlantirish — bilan katta o'xshashlikka ega, biroq Frommer va Silver tadqiqoti rivojlangan bozor iqtisodiyoti sharoitida olib borilgan.

Narx va xizmat sifati o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha P.Shnayder va S.Tsilke xizmat sifati yuqori bo'lgan sari mijozlarning narxga nisbatan sezgirliги pasayishini, ya'ni sifatli xizmat orqali mijozlarni ushlab qolish mumkinligini empirik jihatdan

asoslagan (Schneider & Zielke, 2021). Bu xulosa J.M.Juran va A.B.Godfrey tomonidan ilgari surilgan mijozlarni ushlab qolish tamoyili bilan uyg'unlashadi (Juran & Godfrey, 1999) va O'zbekistonda e'lon qilingan davlat chora-tadbirlarida nafaqat yangi infratuzilma yaratish, balki mavjud xizmatlar sifatini oshirishga ham alohida e'tibor qaratilishi zarurligini ko'rsatadi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilardan K.I.Sirojiddinov va G.T.Toxirova O'zbekistonda xizmatlar sohasining rivojlanish istiqbollari turizm sektori misolida tahlil qilib, mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini turizm orqali ro'yobga chiqarish imkoniyatlarini asoslab bergan (Sirojiddinov & Toxirova, 2023). G.T.Toxirova alohida maqolasida xizmatlar sohasida raqobat muhitini shakllantirish yo'llarini institutsional nuqtayi nazardan yoritgan (Toxirova, 2023). Bu ishlar mavzuning dolzarbligini tasdiqlaydi, biroq ularda 2022-yilda e'lon qilingan aniq davlat chora-tadbirlarining xalqaro tajriba bilan qanchalik uyg'unligi alohida tahlil qilinmagan.

Xalqaro tashkilotlar hisobotlari orasida Xalqaro Mehnat Tashkilotining xizmatlar sohasi o'sishi va kambag'allikni qisqartirish o'rtasidagi bog'liqlik bo'yicha hisob-kitoblari (ILO, 2019) hamda Jahon turizm tashkilotining (UNWTO, 2022) Samarqand shahrini 2022-yil butunjahon turizm poytaxti deb e'lon qilishi alohida ahamiyatga ega, chunki ular O'zbekistonning xalqaro turizm maydonidagi mavqeyini mustahkamlovchi rasmiy tan olinishni ifodalaydi. G.A.Avanesova xizmat ko'rsatish faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini ishlab chiqib, xizmatlar sohasidagi raqobatdosh ustunliklar subyektlarini — turli xil xizmatlar, sanoat birlashmalarini tashkil etuvchi korxona va tashkilotlarni — tasniflab bergan (Avanesova, 2012), bu tasnif mazkur maqolada davlat chora-tadbirlarini tizimlashtirishda asos sifatida qo'llanildi.

Mahalliy tadqiqotchilardan G'.H.Qudratov xizmatlar sohasini aholi bandligini ta'minlash va farovonligini oshirish omili sifatida ko'rib chiqqan (Qudratov, 2007), B.Xodiyev esa xizmat ko'rsatish tashkilotlarining biznes qiymatini oshirish mexanizmlarini tadqiq etgan (Xodiyev, 2007). Ushbu ishlar xizmatlar sohasining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini asoslashda muhim o'rin tutadi, biroq ularda mintaqalar kesimida davlat tomonidan e'lon qilinadigan konkret chora-tadbirlarning (masalan, muayyan tuman yoki shahar uchun mo'ljallangan soliq va kredit imtiyozlari) amaliy mexanizmi batafsil yoritilmagan, bu esa mazkur tadqiqotning o'ziga xos ilmiy o'rnini belgilaydi.

R.M.Nureyev bozor iqtisodiyotiga o'tish davri modellarini tadqiq etar ekan, institutsional muhitning, jumladan davlat tomonidan yaratiladigan soliq va huquqiy imtiyozlarning tadbirkorlik faolligiga ta'sirini asoslab bergan (Nureyev, 2001). Bu nazariy qoida O'zbekistonda 2022-yilda e'lon qilingan soliq imtiyozlari va imtiyozli kredit mexanizmlarining nazariy negizini tashkil etadi. Shuningdek, D.I.Xlebovich va T.D.Burmenko xizmatlar sohasini mamlakat iqtisodiyotining tarkibiy qismi sifatida tahlil qilib, uning hududiy tarkibiy tafovutlarini kamaytirish zarurligini ta'kidlagan (Xlebovich & Burmenko, 2017); ularning xulosalari mazkur maqolada tahlil qilinayotgan hududlar kesimidagi tabaqalashtirilgan yondashuv (tog'li tumanlar, magistral yo'l bo'yi hududlari, yirik shaharlar) bilan mazmunan bog'liq.

Metodologik jihatdan ko'rib chiqilgan tadqiqotlarning bir qismi tasviriy-tahliliy yondashuvga (Avanesova, 2012; Xlebovich & Burmenko, 2017), boshqa qismi esa empirik-statistik yondashuvga (Frommer & Silver, 2015; Sirojiddinov & Toxirova, 2023) tayanadi. Mazkur tadqiqot ushbu ikkala yondashuvni birlashtirib, davlat siyosati hujjatlarini kontent-tahlil qilish bilan xalqaro tajribani qiyosiy baholashni uyg'unlashtiradi, bu esa tadqiqotning metodologik o'ziga xosligini ta'minlaydi.

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasining nazariy asoslari, raqobat strategiyalari hamda turizm iqtisodiyotining hududiy rivojlanish modellari yetarlicha chuqur o'rganilgan bo'lsa-da, O'zbekistonda 2022-yilda e'lon qilingan aniq davlat chora-tadbirlarining (soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar, infratuzilma investitsiyalari) xalqaro, xususan Xitoy, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi mamlakatlarning ichki turizmni rivojlantirish tajribasi bilan qiyosiy tahlili deyarli amalga oshirilmagan. Aynan mana shu ilmiy bo'shliqni to'ldirish mazkur maqolaning asosiy vazifasini tashkil etadi.

METODOLOGIYA

Tadqiqot sifat va miqdor tahlili usullarining uyg'unlashtirilgan majmuasiga tayangan holda olib borildi. Nazariy qism yozilishida deduksiya, induksiya, mantiqiy umumlashtirish hamda sintez usullaridan foydalanildi. Davlat siyosati hujjatlarini tahlil qilishda kontent-tahlil usuli qo'llanildi: bunda 2022-yilda e'lon qilingan chora-tadbirlar mavzular (soliq imtiyozlari, kredit mexanizmlari, infratuzilma investitsiyalari, hududiy ixtisoslashuv) bo'yicha tizimlashtirildi va har bir chora-tadbirning miqdoriy parametrlari (mablag' hajmi, ish o'rinlari soni, muddat) alohida ajratib ko'rsatildi.

Xalqaro tajribani baholashda qiyosiy tahlil usuli qo'llanildi: O'zbekistondagi turizm va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar Xitoy, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi mamlakatlarning ichki turizmni rivojlantirish siyosati bilan solishtirildi. Monografik kuzatish usuli esa Namangan (Yangiqo'rg'on), Toshkent (Bo'stonliq), Andijon (Xonobod), Qashqadaryo (Shahrisabz, Qamashi) va Buxoro (G'ijduvon) viloyatlari misolida amalga oshirilayotgan aniq loyihalarni chuqur o'rganish uchun ishlatildi.

Tadqiqotning ma'lumotlar bazasini quyidagi manbalar tashkil etdi: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha 2022-yilda e'lon qilingan chora-tadbirlariga oid rasmiy materiallar; Xalqaro Mehnat Tashkiloti va Jahon turizm tashkilotining hisobotlari; mavzuga oid ilmiy adabiyotlar va xorijiy tadqiqotlar. Tahlil davri sifatida 2022-yil va undan keyingi rejalashtirilgan davr (2022-2023-yillar) tanlab olindi, bu davr davlat tomonidan e'lon qilingan chora-tadbirlarning amalga oshirilish bosqichini to'liq qamrab oladi.

Kontent-tahlil usulining tanlanishi shu bilan izohlanadiki, u rasmiy hujjatlarda keltirilgan sifat va miqdor ma'lumotlarini tizimli tarzda kategoriyalarga ajratish, ularni o'zaro solishtirish hamda takrorlanuvchan tarzda tahlil qilish imkonini beradi. Qiyosiy tahlil usuli esa milliy siyosatni xalqaro kontekstda baholashning eng keng tarqalgan va ishonchli vositasi hisoblanadi, chunki u o'xshash sharoitdagi mamlakatlar tajribasini asos qilib olgan holda milliy siyosatning kuchli va zaif tomonlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqotda qo'llanilgan barcha ma'lumotlar ochiq va rasmiy manbalardan (davlat dasturlari, xalqaro tashkilotlar hisobotlari) olinganligi sababli, ushbu tadqiqotni boshqa mamlakatlar yoki mintaqalar misolida xuddi shu metodologiya asosida takrorlash mumkin. Bu, o'z navbatida, tadqiqot natijalarining ilmiy ishonchliligini va amaliy qo'llanilishini ta'minlaydi. Shuningdek, tadqiqot davomida yig'ilgan barcha miqdoriy ma'lumotlar (mablag' hajmi, ish o'rinlari soni, foiz nisbatlari) bir nechta rasmiy manba orqali o'zaro tekshirildi, bu esa keltirilgan raqamlarning ishonchliligini oshirishga xizmat qildi.

Tanlangan usullarning kombinatsiyasi davlat siyosati hujjatlarini ham tavsifiy, ham tahliliy nuqtayi nazardan yoritish, xalqaro tajriba bilan asoslangan taqqoslash o'tkazish hamda natijalarning ishonchliligini ta'minlash imkonini yaratadi. Tadqiqotning metodologik chegarasi shundan iboratki, e'lon qilingan chora-tadbirlarning amaliy ijro natijalari (masalan, aniq yaratilgan ish o'rinlari soni) tadqiqot davrida hali to'liq shakllanmagan bo'lib, bu ularni faqat rejalashtirilgan ko'rsatkichlar sifatida tahlil qilish imkonini beradi; ijro natijalarini baholash kelgusi tadqiqotlar mavzusini tashkil etishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xizmatlar sohasi mamlakat iqtisodiy o'sishi, arzon ish o'rinlari yaratish va bandlikni ta'minlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro Mehnat Tashkiloti hisob-kitobiga ko'ra, xizmatlar sohasining 1 foizga o'sishi kambag'allikni o'rtacha 1,5 foizga qisqartiradi. 2022-yilda Jahon turizm tashkiloti tomonidan Samarqand shahri butunjahon turizm poytaxti deb e'lon qilindi va O'zbekiston tarixda birinchi marta ushbu tashkilotning Bosh assambleyasiga mezbonlik qildi.

Qo'shni davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, Qozog'istonda jami sayyohlarning 85 foizini, Qirg'izistonda esa 75 foizini mahalliy aholi tashkil etadi, bu esa ichki turizmning mintaqaviy iqtisodiyotdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. O'zbekistonda ham deyarli barcha hududlarda ichki turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar mavjud bo'lib, turizm salohiyati yuqori bo'lgan 45 ta hamda 40 ta tog'li va tog'oldi tumanlar rivojiga alohida e'tibor qaratilmoqda (1-jadval).

1-jadval.

Turizm salohiyatiga ega ayrim hududlarda amalga oshirilayotgan loyihalar

Hudud	Loyiha yo'nalishi	Kutilayotgan natija
Namangan viloyati, Yangiqo'rg'on tumani	16 ta sanatoriyni qayta tiklash	≈1500 kishi bandligi ta'minlanadi
Toshkent viloyati, Bo'stonliq tumani	Yengil konstruksiyali turistik bazalar tashkil etish	≈8000 kishi bandligi ta'minlanadi
Andijon viloyati, Xonobod shahri	Davolash-sog'lomlashtirish turizmi (mineral suv xo'jaligi)	Minglab ish o'rni yaratiladi
Qashqadaryo viloyati, Shahrisabz tumani	Yo'l, aloqa, internet va mehmonxona infratuzilmasi	Turizm xizmatlari 3-4 barobar oshadi
Buxoro viloyati, G'ijduvon tumani	Xalqaro yo'l bo'yida uy-joylarda xizmat ko'rsatish, viloyatlararo ulgurji savdo markazi	5 ming kishi bandligi ta'minlanadi
Toshkent tumani, G'ishtko'prik	Bojxona postini kengaytirish, savdo-logistika markazi	Kuniga 5000 yuk transporti, 35 000 kishiga xizmat

Ushbu hududlarda yo'l, mobil aloqa va tezkor internet infratuzilmasining yetarli rivojlanmaganligi turizm imkoniyatlaridan foydalanishni cheklamoqda. Masalan, Shahrisabz tumanining Navro'z, Miraki, Oqdaryo va Hisor hududlariga yiliga 500 mingga yaqin sayyoh tashrif buyuradi, biroq infratuzilma yetishmasligi sababli sayyohlar bir kunga kelib ketmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, ushbu hududlarga olib boruvchi 65 kilometrlik yo'lni ta'mirlash, internet, mobil aloqa va kommunal infratuzilma masalalarini hal qilish orqali turizm xizmatlari hajmini 3-4 barobarga oshirish mumkin.

Sayyohlik salohiyati yuqori bo'lgan tumanlarning "master reja"lari ishlab chiqilib, yerlar tadbirkorlarga tayyor loyiha bilan auksionga chiqarilishi rejalashtirilgan; bu ishlar uchun dastlabki bosqichda, ya'ni 2022-yilda 200 mlrd. so'm mablag' ajratildi, keyingi yilda esa sayyohlik hududlari infratuzilmasini yaxshilashga 100 million dollar jalb qilinishi ko'zda tutildi. Davlat rag'batlantirish choralari doirasida yangi mehmonxona va dam olish maskanlari uchun mol-mulk va yer solig'i 3 yil davomida 2 barobar past stavkada belgilandi, turizm sohasi uchun maxsus soliq rejimi joriy etilib, aylanmadan olinadigan va ijtimoiy soliq 1 foiz stavkada belgilandi (2-jadval).

2-jadval.

2022-yilda xizmatlar sohasini rivojlantirishga yo'naltirilgan davlat mablag'lari

Yo'nalish	Mablag' hajmi	Kutilayotgan natija
Turizm salohiyati yuqori hududlar "master reja"lari (2022-yil)	200 mlrd. so'm	Infratuzilmani yaxshilash
Sayyohlik hududlari infratuzilmasi (kelgusi yil)	100 mln. AQSh dollari	Yo'l, aloqa, mehmonxona infratuzilmasi
Sanoati rivojlangan 27 tuman xizmat ko'rsatish obyektlari	200 mlrd. so'm	Savdo, logistika, mehmonxona xizmatlari
35 ta tuman/shahar (turizm, tibbiyot, ta'lim, savdo)	200 mln. AQSh dollari	200 000 ish o'rni
Toshkent, Namangan, Samarqand — yuqori daromadli xizmatlar	500 mln. AQSh dollari	750 000 ish o'rni

Sanoati rivojlangan 27 tumanda savdo, umumiy ovqatlanish, logistika, mehmonxona va texnik xizmat ko'rsatish yo'nalishlarini rivojlantirishga 200 mlrd. so'm ajratildi. Mamlakatning 85 ta chegara oldi hamda hududidan xalqaro avtomagistral va temir yo'llar o'tgan 99 ta tumani savdo va logistika xizmatlariga ixtisoslashtirilmoqda; jumladan, G'ijduvon tumanida 34 gektar maydonda beshta viloyatni bog'lovchi viloyatlararo ulgurji savdo markazi qurilishi orqali 5 ming aholi bandligi ta'minlanishi rejalashtirilgan.

Yirik shaharlarda yuqori daromadli xizmatlarni rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda: 2022-yilning o'zida 40 mingdan ortiq chet el fuqarosi O'zbekistonda tibbiyot xizmatlaridan foydalangan bo'lib, Toshkent, Namangan va Samarqand shaharlarida yadro tibbiyoti, neyro- va kardioxirurgiya markazlarini tashkil etish tadbirkorlar tashabbusi asosida qo'llab-quvvatlanmoqda. Umuman, 35 ta tuman va shaharda turizm, transport, tibbiyot va ta'lim ob'yektlarini rivojlantirish uchun 200 million dollar yo'naltirilishi va 200 ming ish o'rni yaratilishi rejalashtirilgan bo'lsa, Toshkent, Namangan va Samarqand shaharlarida xizmat ko'rsatish sohasida jami 750

ming ish o'rni yaratish va 500 million dollar mablag' ajratish ko'zda tutilgan.

MUHOKAMA

Tahlil natijalari O'zbekistonda 2022-yilda e'lon qilingan xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarning P.Frommer va K.Silver tomonidan tasvirlangan Las-Vegas modeliga (Frommer & Silver, 2015) mazmunan yaqin ekanligini ko'rsatadi: ikkala holatda ham soliq imtiyozlari, infratuzilma investitsiyalari va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash mexanizmlari orqali hududiy turizm salohiyatini ro'yobga chiqarish asosiy vosita sifatida qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, Las-Vegas tajribasidan farqli o'laroq, O'zbekistonda davlatning roli nafaqat soliq siyosati, balki bevosita infratuzilma qurilishi (yo'l, aloqa, kommunal tarmoqlar) bilan ham bog'liq bo'lib, bu farq ikki mamlakatning boshlang'ich infratuzilma darajasidagi tafovutlar bilan izohlanishi mumkin.

Yangi mijozlarni jalb qilish xarajatlarining mavjud mijozlarni ushlab qolish xarajatlaridan bir necha barobar yuqoriligi (Juran & Godfrey, 1999) O'zbekistonda xizmat sifatini oshirishga yo'naltirilgan chora-tadbirlarning, xususan mobil aloqa va internet infratuzilmasini yaxshilashning nafaqat yangi sayyohlarni jalb qilish, balki mavjud iste'molchilarni qondirish nuqtayi nazaridan ham muhim ekanligini tasdiqlaydi. Bu xulosa P.Shnayder va S.Tsilke tomonidan asoslangan narx-sifat nisbati nazariyasi bilan ham uyg'unlashadi (Schneider & Zielke, 2021): sifatli infratuzilma va xizmat ko'rsatish orqali narx omilining ahamiyati pasayadi, bu esa uzoq muddatli raqobatbardoshlikni ta'minlaydi.

Qozog'iston va Qirg'iziston tajribasi bilan solishtirganda (mos ravishda 85 va 75 foiz ichki turizm ulushi) shuni ta'kidlash mumkinki, O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirish salohiyati hali to'liq ro'yobga chiqarilmagan, biroq 45 ta tog'li va tog'oldi tumanlar uchun ishlab chiqilgan maqsadli infratuzilma dasturi ushbu salohiyatni tezlashtirish uchun real imkoniyat yaratadi. K.I.Sirojiddinov va G.T.Toxirova tomonidan ta'kidlangan — turizm orqali mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish — g'oyasi (Sirojiddinov & Toxirova, 2023) mazkur davlat chora-tadbirlarida amaliy ifodasini topgan, xususan Yangiqo'rg'on, Bo'stonliq va Xonobod misolida ko'rsatilgan aniq ish o'rinlari yaratish rejalari orqali.

R.M.Nureyev tomonidan asoslangan institutsional muhitning tadbirkorlik faolligiga ta'siri haqidagi qoida (Nureyev, 2001) magistral yo'l bo'yi va chegara oldi hududlarida logistika xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlarda ham o'z tasdig'ini topadi: bojxona postlarini kengaytirish va yo'l infratuzilmasini yaxshilash orqali yaratilayotgan institutsional shart-sharoitlar tashqi savdo va logistika xizmatlariga bo'lgan talabni sezilarli darajada oshirishi kutilmoqda. Shu bilan birga, D.I.Xlebovich va T.D.Burmenko ta'kidlagan hududiy tarkibiy tafovutlarni kamaytirish zarurati (Xlebovich & Burmenko, 2017) tog'li tumanlar, magistral yo'l bo'yi hududlari va yirik shaharlar uchun alohida-alohida ishlab chiqilgan tabaqalashtirilgan yondashuvda o'z aksini topgan.

Yirik shaharlarda yuqori daromadli tibbiyot, ta'lim va san'at xizmatlarini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar B.Xodiyev tomonidan ta'kidlangan xizmat ko'rsatish tashkilotlarining biznes qiymatini oshirish g'oyasi (Xodiyev, 2007) bilan

uyg'un keladi: tibbiy turizm va ixtisoslashtirilgan klinikalarni rivojlantirish orqali xizmatlarning qo'shimcha qiymati va eksport salohiyati oshiriladi. Shu bilan birga, G'.H.Qudratov ta'kidlagan xizmatlar sohasining bandlikni ta'minlashdagi o'rni (Qudratov, 2007) mazkur tadqiqotda keltirilgan raqamlarda — 750 ming va 200 ming ish o'rni yaratish rejalari misolida — yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuningdek, aloqa operatorlariga bazaviy stansiyalardan birgalikda foydalanish huquqini berish va yangi stansiyalarni soliqdan ozod etish bo'yicha chora-tadbir I.M.Kirtsner ta'kidlagan tadbirkorlik tashabbusi uchun qulay institutsional shart-sharoit yaratish g'oyasi (Kirtsner, 2001) bilan mazmunan bog'liq: bunday yengillik nafaqat davlat, balki xususiy aloqa operatorlarining ham turizm hududlarida faollashuviga turtki bo'ladi. Umuman olganda, tahlil qilingan chora-tadbirlar majmui xizmatlar sohasida davlatning roli faqat moliyaviy qo'llab-quvvatlash bilan cheklanmasdan, balki institutsional muhitni yaxshilash, infratuzilma yaratish va hududiy ixtisoslashuvni rag'batlantirish orqali kompleks tarzda amalga oshirilayotganini ko'rsatadi, bu esa jahon amaliyotidagi ilg'or yondashuvlarga mos keladi.

Amaliy nuqtayi nazardan, natijalar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasida davlat siyosatining samaradorligi ko'p jihatdan hududiy tabaqalashtirilgan yondashuvga bog'liq: tog'li tumanlar uchun infratuzilma investitsiyalari, magistral yo'l bo'yi hududlari uchun logistika xizmatlarini rag'batlantirish, yirik shaharlar uchun esa yuqori qo'shimcha qiymatli xizmatlarni rivojlantirish choralari qo'llanilishi maqsadga muvofiqdir. Bunday tabaqalashtirilgan yondashuv G.A.Avanesova tomonidan taklif etilgan xizmat turlarini tasniflash mezonlariga (Avanesova, 2012) mos kelib, har bir hudud o'ziga xos xizmat turi bo'yicha ixtisoslashishini ta'minlaydi.

Tadqiqotning bir qator cheklovlari mavjud. Birinchidan, tahlil 2022-yilda e'lon qilingan chora-tadbirlarning rejalashtirilgan ko'rsatkichlariga asoslangan bo'lib, ularning haqiqiy ijro natijalari tadqiqot davrida hali to'liq shakllanmagan, shu sababli olingan xulosalar dastlabki xarakterga ega. Ikkinchidan, xalqaro tajriba bilan solishtirish faqat uchta mamlakat (Xitoy, Qozog'iston, Qirg'iziston) misolida amalga oshirilgan bo'lib, kengroq xalqaro qiyosiy tahlil kelgusi tadqiqotlar mavzusini tashkil etishi mumkin. Uchinchidan, tadqiqotda faqat rasmiy hujjatlar va ikkilamchi manbalardan foydalanilgani sababli, mahalliy tadbirkorlar va aholining chora-tadbirlarga bo'lgan real munosabati o'rganilmagan.

XULOSA

O'tkazilgan tadqiqot natijalari O'zbekistonda 2022-yilda e'lon qilingan xizmatlar sohasini, xususan turizm va yo'lbo'yi xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha davlat chora-tadbirlari jahon amaliyotidagi ilg'or tajriba, xususan hududiy turizm rivojlanish modellari va institutsional qo'llab-quvvatlash tamoyillari bilan katta darajada uyg'unligini ko'rsatdi. Soliq imtiyozlari, imtiyozli kreditlar va infratuzilma investitsiyalari orqali turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlarni rivojlantirish, magistral yo'l bo'yi va chegara oldi hududlarida logistika xizmatlarini rag'batlantirish hamda yirik shaharlarda yuqori daromadli xizmatlarni kengaytirish bo'yicha kompleks yondashuv qo'llanilmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot davomida aniqlangan chora-tadbirlarning aksariyati

hali dastlabki bosqichda bo'lib, ularning amaliy ijro natijalarini baholash kelgusi tadqiqotlar mavzusini tashkil etadi. Davlat siyosatini yanada takomillashtirish maqsadida quyidagilar tavsiya etiladi: birinchidan, e'lon qilingan chora-tadbirlarning ijrosini muntazam monitoring qilish tizimini yo'lga qo'yish; ikkinchidan, xalqaro tajribani, xususan Xitoy, Qozog'iston va Qirg'iziston kabi mamlakatlarning ichki turizmni rivojlantirish mexanizmlarini chuqurroq o'rganish va moslashtirish; uchinchidan, mahalliy tadbirkorlar va aholi o'rtasida chora-tadbirlar samaradorligini baholash bo'yicha sotsiologik so'rovnomalar o'tkazish.

Tadqiqot natijalari davlat organlari tomonidan xizmatlar sohasini rivojlantirish dasturlarini takomillashtirishda hamda mintaqaviy darajada amaliy chora-tadbirlarni loyihalashtirishda foydalanilishi mumkin. Umuman olganda, xizmatlar sohasidagi davlat siyosatining xalqaro tajriba bilan uyg'unlashuvi nafaqat alohida chora-tadbirlarni ko'chirib olishni, balki ularni milliy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitga moslashtirilgan holda tabaqalashtirilgan tarzda qo'llashni talab etadi, bu esa mazkur tadqiqotning asosiy amaliy xulosasi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Avanesova G.A. Servisnaya deyatelnost. Istoricheskaya i sovremennaya praktika, predprinimatelstvo menedjment. – M.: Aspekt Press, 2012. – 318 s.
2. Frommer P., Silver K. Las Vegas. – LV.: Wiley Publishing Inc., 2015.
3. Fuchs V.R. The Service Economy. – New York: Columbia University Press, 1968.
4. International Labour Organization (ILO). World Employment and Social Outlook: Trends. – Geneva: ILO, 2019.
5. Juran J.M., Godfrey A.B. (co-editors-in-chief). Juran's Quality Handbook. – 5th ed. – New York: McGraw-Hill, 1999.
6. Kirtsner I.M. Konkurentsia i predprinimatelstvo / per. s angl. – M.: YuNITI-DANA, 2001. – 30 s.
7. Nureyev R.M. Ekonomika razvitiya: modeli stanovleniya rynochnoy ekonomiki: uchebnoye posobiye. – M.: INFRA-M, 2001. – 104 s.
8. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: Toshkent, 2023.
9. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha 2022-yilda e'lon qilingan chora-tadbirlariga oid rasmiy materiallari.
10. O'zbekiston Respublikasi "Raqobat to'g'risida"gi O'RQ-850-sonli Qonuni, 2023.
11. Qosimova M.S. Servis sohasini boshqarish. – T.: "O'qituvchi", 2013. – 239 b.
12. Qudratov G'H. Servis rivoji – aholining bandligini ta'minlash va farovonligini oshirish omili. Risola. – T.: "Fan va texnologiya", 2007. – 16 b.
13. Schneider P.J., Zielke S. Price versus service: Can retailers beat showrooming with competence // Journal of Retailing and Consumer Services. – 2021. – Vol. 61. – 102592. DOI: <https://doi.org/10.1016/j.jretconser.2021.102592>
14. Singelmann J. The Sectoral Transformation of the Labor Force in Seven Industrialized Countries, 1920-1970 // American Journal of Sociology. – 1978. – Vol. 83, No. 5. – P. 1224-1234.
15. Sirojiddinov K.I., Toxirova G.T. Razvivayushchayasya sfera uslug v Uzbekistane: perspektivy razvitiya sotsialno-ekonomicheskogo potentsiala turizma // TIU Journal of

Digital Economy and Business. – 2023. – Vol. 2(2). – P. 5-13. ISSN: 2992-8753

16. Toxirova G.T. Service sector: how to form a competitive environment // Innovative Development in Educational Activities. – 2023. – Vol. 2, №23. – P. 369-382.

17. World Tourism Organization (UNWTO). Samarkand named World Tourism Capital for 2022. – Madrid: UNWTO, 2022.

18. Xlebovich D.I., Burmenko T.D. Sfera uslug: uchebnoye posobiye. – M.: KNORUS, 2017. – 156 s.

19. Xodiyev B. Biznes qiymatini baholash. – T.: "Iqtisod-moliya", 2007. – 254 b.